

*Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi*

**Amonqulov Baxtiyor Choriyevich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining shakllanish jarayoni, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda bugungi kundagi holatiga kelib chiqish omillari tahlil qilingan. Bundan tashqari, oxirgi yillarda sud-huquq sohasini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari haqida ham batafsil ma’lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud tizimi, odil sudlov, Harakatlar dasturi, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod qamoq jazosi, o‘lim jazosi, BMT.*

**Sud** — jamiyatda adolatni qaror toptiruvchi, fuqarolar hamda turli tashkilotlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiladigan davlat organidir. U sodir etilgan huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqib, ularga nisbatan qonunda belgilangan tartibda jazo choralarini belgilaydi va huquqiy tartibni ta’minlashga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda sud tizimini yangilash, uning mustaqilligini kuchaytirish va faoliyatini zamonaviy demokratik talablarga moslashtirish yo‘lida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Bu jarayon, eng avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Qisqa davr ichida sud-huquq sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilib, tizimni tubdan o‘zgartirishga erishildi. Bugungi kunda inson manfaatlari davlat siyosatining markaziga qo‘yilgan bo‘lib, qabul qilinayotgan qonunlar ham aynan fuqarolarning huquqlarini ta’minlash va himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Avvallari, ya’ni 2008-yilgacha mamlakatimiz qonunchiligida o‘lim jazosi mavjud edi. Uni bekor qilish bo‘yicha muhim qadam 2005-yil 1-avgustda qabul qilingan Prezident farmoni orqali tashlandi.<sup>47</sup>

Mazkur o‘zgarishlar jinoiy jazolar tizimini yanada insonparvar qilishga xizmat qildi. Shu asosda tegishli kodekslarga o‘zgartirishlar kiritilib, jinoyatlarning tasnifi qayta ko‘rib chiqildi hamda o‘lim jazosi bilan bog‘liq qoidalar qonunchilikdan butunlay chiqarib tashlandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy qonunchiligimizda o‘lim jazosi jazo chorasi sifatida 30 dan ortiq moddalarda nazarda tutilgan edi. Keyinchalik insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish maqsadida ushbu jazo turi bekor qilinib, 2008-yil 1-yanvardan boshlab uning o‘rniga umrbod qamoq hamda uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazolari joriy etildi.

<sup>47</sup> <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/29455/18920/29155>

25-Aprel, 2026-yil

Natijada, O‘zbekiston Respublikasi o‘z qonunchiligidan o‘lim jazosini butunlay chiqarib tashlab, inson huquqlari ustuvor bo‘lgan demokratik davlat sifatida o‘z pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlarda davlat rahbarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Prezidentning 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni sud tizimini yanada takomillashtirish, uning mustaqilligini mustahkamlash hamda sud ishlarini ko‘rib chiqish sifatini oshirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

Mazkur hujjat asosida 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategiya hamda uni amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur doirasida sudlarning mustaqilligini ta‘minlash, ularning faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.<sup>48</sup>

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari kengashi doirasida 2020-yil 13-iyul kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda BMTning sudyalari va advokatlar mustaqilligi masalalari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi Diego Garsiya-Sayan O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga yuqori baho berdi. U o‘z ma‘ruzasida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida davlat institutlari va siyosatini yangilash hamda modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli dastur amalga oshirilayotganini, sud tizimidagi o‘zgarishlar esa aynan shu jarayonning ajralmas qismi ekanini ta‘kidladi.

Bu esa sud-huquq sohasidagi yangilanishlar izchil ravishda jahon standartlariga mos holda olib borilayotganini va tizimni yanada rivojlantirish asosiy maqsad qilib belgilanganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, odil sudlovning samaradorligini oshirish hamda sudlar mustaqilligini mustahkamlash yo‘nalishida izchil va keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir fuqaro sudga murojaat qilganida, aynan shu maskanda qonun ustuvorligi va adolat ta‘minlanishiga qat‘iy ishonch hosil qilishi lozim.

So‘nggi yillarda ushbu sohada olib borilayotgan yangilanishlar sud tizimini sifat jihatidan yangi pog‘onaga olib chiqib, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar davlat rahbarining tashabbusi va bevosita e‘tibori ostida amalga oshirilayotgani alohida ahamiyatga ega.

Yurtimizda kechayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyat hayotining turli jabhalarida ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda sud-huquq tizimida qo‘lga kiritilgan natijalar aholi manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qilib, fuqarolarning ushbu tizimga nisbatan ishonchini oshirmoqda.

Ma‘lumki, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda qonun ustuvorligini hayotga tatbiq etishda mustaqil sud hokimiyati hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bois, sud

<sup>48</sup> <https://parliament.gov.uz/articles/1671>

tizimini shakllantirish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish davlat huquqiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qisqa vaqt ichida sud-huquq sohasini tubdan yangilashga qaratilgan muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Inson va uning manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham sud organlarining fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil institut sifatidagi o‘rni yanada mustahkamlandi.

Jumladan, Konstitutsiyaning 136-moddasida sudyalarning mustaqilligi, ularning faqat qonun va Konstitutsiyaga bo‘ysunishi, sud faoliyatiga aralashuvga yo‘l qo‘yilmasligi hamda bunday holatlar javobgarlikka sabab bo‘lishi aniq belgilab qo‘yilgan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun sudga murojaat qilish imkoniyatlari kengaytirilib, odil sudlovdan foydalanish darajasi oshmoqda. Shu bilan birga, sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Sud-huquq tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar xalqaro maydonda ham e’tirof etilib, mamlakatimizning reytinglardagi o‘rni yaxshilanmoqda. Xususan, sud mustaqilligi va qonun ustuvorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar bo‘yicha nufuzli xalqaro indekslarda O‘zbekistonning mavqei ortib bormoqda.

Prezidentning 16-yanvardagi farmoni ham ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Unda sud tizimi faoliyatini yanada samarali tashkil etish, mustaqilligini ta’minlash va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilangan.<sup>49</sup>

Mazkur hujjat asosida 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan strategiya hamda uni amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar dasturi qabul qilindi. Unda sud tizimini yanada rivojlantirish, “habeas corpus” institutini keng qo‘llash, yagona sud amaliyotini shakllantirish, sudyalarning mustaqilligini ta’minlashning yangi mexanizmlarini joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.

Bugungi kunda ushbu vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa sud qarorlarining qonuniyligi va samaradorligini oshirish, sudlar faoliyatining ochiqligini ta’minlash hamda sudyalarning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada fuqarolar va tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchi yanada ortadi.

Umuman olganda, xalqaro talab va standartlarga mos rivojlanayotgan sud-huquq tizimi investitsion muhitni yaxshilashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa tadbirkorlik subyektlariga o‘z huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish imkonini berib, iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayoniga e’tibor qaratisa, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun muhim bosqich bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ushbu hujjat orqali, Konstitutsiyaviy suddan tashqari,

<sup>49</sup> <https://uza.uz/de/posts/sud-tizimi-rivojlanishi-tarixiga-nazar-tashlasak-325026>

sudlar faoliyatining asosiy tartib-qoidalari belgilab berildi. Keyinchalik, 2000-yil 14-dekabrda mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilinib, sohadagi o‘zgarishlar inobatga olindi.<sup>50</sup>

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va sud-huquq tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi yangi huquqiy normalarga ehtiyoj tug‘irdi. Shu sababli, 2021-yil 28-iyulda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilinib, avvalgi 1993 va 2000-yillardagi qonunlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etildi.

Yangi tahrirdagi qonun bir qator muhim yangiliklari bilan ajralib turadi. Xususan, unda sudyalari uchun yosh chegarasi aniq belgilandi: Oliy sud sudyalari uchun maksimal yosh 70 yosh, boshqa sudlar sudyalari uchun esa 65 yosh etib ko‘rsatildi.

Shuningdek, sudyalarning vakolat muddati ham aniq tartibga solindi. Unga ko‘ra, sudya dastlab 5 yilga, keyin 10 yilga, so‘ngra esa muddatsiz davrga belgilangan tartibda saylanishi yoki tayinlanishi nazarda tutilgan.

Qonunda xalq maslahatchilari institutiga ham alohida e‘tibor qaratilib, ularga qo‘yiladigan talablar belgilandi. Jumladan, 35 yoshdan kichik bo‘lmagan, yashash yoki ish joyidagi yig‘ilishda ochiq ovoz berish orqali 2,5 yil muddatga saylangan O‘zbekiston fuqarosi xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkinligi qayd etildi.

Bundan tashqari, yangi qonun sudyalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan normalarni ham o‘z ichiga oladi. Unda hech bir shaxs sud qarorisiz qamoqqa olinmasligi, shuningdek, har kimga odil sudlov jarayonida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi alohida belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini rivojlanishning muhim omiliga aylantirish masalasi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham alohida o‘rin egallagan. Ushbu hujjatda mulkiy huquqlarni ishonchli himoya qilish, davlat organlarining bu sohadagi asossiz aralashuviga chek qo‘yish, qiynoqlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni takomillashtirish hamda tegishli qonunchilikni rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, yuvenal adliya tizimini joriy etish, bola huquqlariga oid normalarni tizimlashtirish va sud faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Sud tizimini raqamlashtirish yo‘nalishida muhim qadam sifatida Prezidentning 2020-yil 3-sentabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4818-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida 2020–2023-yillarga mo‘ljallangan maxsus dastur ishlab chiqilib, sudlar faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Ushbu dasturga muvofiq, sud majlislarini audioyozuv orqali qayd etish, bayonnomalarni elektron shaklda yuritish, ishlarni apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida sudyalari o‘rtasida avtomatik taqsimlash kabi yangiliklar joriy etildi. Shuningdek, sud jarayonlari ishtirokchilarini majlis vaqti va joyi haqida bepul SMS

<sup>50</sup> <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/49446>

25-Aprel, 2026-yil

xabarnomalar orqali ogohlantirish, ish hujjatlarini elektron shaklda davlat arxiviga topshirish tizimi ham yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunga kelib, sud-huquq sohasini raqamlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Ayniqsa, Oliy sud tomonidan yaratilgan my.sud.uz elektron platformasi fuqarolar uchun katta qulaylik yaratdi. Mazkur portal orqali jismoniy va yuridik shaxslar ariza, shikoyat yoki takliflarini fuqarolik, jinoyat yoki iqtisodiy sudlarga masofadan turib yuborish imkoniyatiga ega bo‘lib, ushbu murojaatlar belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi va ko‘rib chiqiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <file:///C:/Users/pc/Downloads/ilm-fan+0831.pdf>
2. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/29455/18920/29155>
3. <https://parliament.gov.uz/articles/1671>
4. [https://uza.uz/de/posts/sud-tizimi-rivojlanishi-tarixiga-nazar-tashlasak\\_325026](https://uza.uz/de/posts/sud-tizimi-rivojlanishi-tarixiga-nazar-tashlasak_325026)
5. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/49446>